

ARASTU VA IBN MISKAVAYH AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Muxammadjonov Azamatbek Qosimjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

birinchi bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Sulaymonova Sh.N.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germevtika kafedrasi o'qituvchisi,

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada antik davr yunon faylasufi Arastu hamda musulmon sharq olamining yirik mutafakkiri Ibn Miskavayhning axloqiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki faylasufning baxt-saodat, fazilat, komil inson va axloqiy kamolot haqidagi g'oyalari o'rganiladi. Shuningdek ularning axloqiy konsepsiyalaridagi o'xshash va farqli tomonlari aniqlanib, G'arb va Sharq etikasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Ibn Miskavayhning axloqiy qarashlari Aristotel falsafasining o'zaro ta'sirlashuvi va bu g'oyalar islom axloqi bilan boyitilganligi asoslab berildi.

Kalit sozlar: Axloq falsafasi, fazilat, baxt-saodat, komil inson, axloqiy kamolot, qiyosiy tahlil, falsafiy merosi.

ANNOTATION

This article provides a comparative analysis of the ethical views of the ancient Greek philosopher Aristotle and the great thinker of the Muslim East, Ibn Miskawayh. During the study, the ideas of both philosophers about happiness, virtue, the perfect man, and moral perfection are studied. Also, similarities and differences in their ethical concepts are identified, and the connection between Western and Eastern ethics is analyzed. As a result of the study, it was proved that Ibn Miskawayh's ethical views are the result of the interaction of Aristotle's philosophy and the enrichment of these ideas with Islamic ethics.

Keywords: Moral philosophy, virtue, happiness, the perfect man, moral perfection, comparative analysis, philosophical heritage.

KIRISH

Axloq falsafasi insoniyat tafakkuri tarixi davomida uzluksiz ravishda shakllanib kelgan qadimiy fan hisoblanadi. U insonning xulq-atvori, axloqiy qadryatlari va jamiyatdagi ma'naviy munosabatlarni o'rganadigan falsafaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ilm dunyosidagi har qanday ilmning tarixisiz nazariyasi bo'lmaydi, degan hikmat, ayniqsa axloqshunoslikka taalluqlidir. Zero, axloqshunoslik tarixiy axloqiy tafakkurning vujudga kelishi hamda uning taraqqiyoti qonuniyatlarni o'rganadi, ma'naviy merosning ulkan qismi bo'lishi axloqiy ta'limotlar, hikmatlar, pand- o'gitlarni zamonaviy jamiyat hayotiga tadbqiq etish targ'ib qilish yo'llarini tahlil etadi. Garchand har bir axloqiy konsepsiya ma'lum bir mutafakkir mulohazalari va faoliyatining mevasi bo'lsada, u mohiyatan, muayyan tarixiy davr talabidan kelib chiqadi. Ayni paytda, turli odob va axloqiy qonun-qoidalarini o'z ichiga oladigan axloqiy targ'ibot muammolari, axloqiy pand-o'gitlar va me'yoriy talablarni bajarish, axloqiy boshqarish sohasiga kiradi hamda axloqshunoslikning odatda "amaliy axloq" deb ataladigan qismini tashkil etadi.¹ Amaliy axloqning dastlabki namunalari bundan 3 yarim ming yil avval paydo bo'lib bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Axloq falsafasi G'arb va Sharq tafakkurining o'zaro bog'liqligi muhim ilmiy masalalardan biridir. Antik davr yunon falsafasining atoqli faylasuflaridan biri "Birinch muallim" deb nom olgan Arastu hamda musulmon Sharqining mashhur mutafakkiri Ibn Miskavayh axloqiy tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan faylasuflar hisoblanadi. Ularning qarashlarini qiyosiy tahlil qilish orqali G'arb va Sharq axloqiy tafakkuri o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rish mumkin.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiy metod asosida antik davr va islom falsafasida axloqiy qarashlarning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Ushbu metod orqali Aristotel va Ibn Miskavayh yashagan davrning ijtimoiy-madaniy sharoitlari hamda ularning falsafiy qarashlariga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlil qilindi.

MUHOKAMA

Qadimgi davr yunon falsafasining yirik faylasuflaridan biri hisoblangan Aristotel o'zining axloq falsafasining nazariy konsepsiyasini ishlab chiqqan hamda tarixda falsafaning bu yo'nalishini birinchi bo'lib mustaqil fan sifatida ilmiy-falsafiy bilimlar safiga kiritgan. Unda insonlar o'rtasidagi munosabatlar doirasida va oqil, ijtimoiy hayvon – individning axloqini o'rganuvchi fan, deb nom berdi. Axloq –

¹ Sulaymonova Sh. N. IBN Miskavayh axloqiy qarashlarida inson kamoloti masalasining qo'yilishi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – Vol. 1, №8. – 919-925-bet.

odob masalalariga bag'ishlangan asarini mavjud. Bu asar o'g'liga bag'ishlangan bo'lib, to'g'ri yurush- turush, axloq- odob xaqida amaliy nasihat sifatida yozilgan va shu bois asar «Nikomax etikasi» deb atalgan. Arastuning axloqiy ta'limoti monolog sifatida, ya'ni shakli jihatidan ilmiy asar bo'lib, badiiylikdan va kundalik fikr-mulohazalardan yiroqdir.² Arastu fikricha, axloq masalasi keng va atroflicha o'rganish hamda uning tizimini yaratishdan avval baxt-saodat nimaligini aniqlab berish lozim. Arastu axloqiy fazilatlar va illatlarni "o'rtacha me'yor (oltin o'rtalik)" tamoyiliga asoslanib tasnif qiladi. Faylasufning fikricha, har bir axloqiy fazilat ikki illat o'rtasidagi o'rtacha holat mavjuddir:

1. Ortiqlik (haddan oshish)

2. Kamlik (yetishmaslik)

Manashu "oltin o'rtalik" ahamiyati bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Birinchidan, bu axloqiy muvozanatni ta'minlaab beradi. "Oltin o'rtalik" inson xulq-atvorida haddan oshish yoki kamchilikdan qochib, muvozanatli yo'lni tanlashga yordam beradi. Bu esa insonning to'g'ri va oqilona qaror qabul qilishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, "Oltin o'rtalik" axloqiy fazilatlarining mezoni hisoblanadi. Arastu nazarida har bir fazilat ikki illat o'rtasidagi o'rtacha holatdir. Masalan, jasorat qo'rqoqlik va haddan tashqari jasorat o'rtasida joylashadi. Shuning uchun "oltin o'rtalik" fazilatni aniqlashning asosiy mezoni hisoblanadi.

Uchinchidan, bu konsepsiya inson kamolotiga xizmat qiladi. Arastu axloqiy kamolotga erishish uchun inson o'z xulqini muvozanatda saqlashi kerakligini ta'kidlaydi. Bu g'oya insonning ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, bu nazariya baxt-saodatga erishish yo'lini ko'rsatadi. Arastu fikricha, inson hayotining oliy maqsadi – baxt-saodatdir. Bu maqsadga erishish esa aynan fazilatli hayot orqali amalga oshadi. Fazilatli hayot esa "oltin o'rtalik" tamoyiliga amal qilish bilan bog'liq.³

Arastu etikasining ma'lum tarixiy va sinfiy xarakteri yaxshiliklarni tushuntirishga, masalalarni adolatli hal etishga bog'liq. Axloqiy fazilatlar orqali birinchi o'rinda adolat turadi. «Adolatsiz deb qonuni buzuvchilarga, boshqalardan ortiqroq oluvchi va boshqalarga teng munosabatda bo'lmaydiganlarga aytiladi»⁴. Arastu birinchi bo'lib, qadimgi dunyo axloqida inson xulqining tizimini tadqiq etadi.

² Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti", 2010. – 37–38-betlar.

³ Aristotle. Nicomachean Ethics. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 52–55-betlar.

⁴ Aristotle. Nicomachean Ethics. Oxford University Press, 2009. - P. 28.

U amaliyotga murojat qilib, iroda erkinligi masalasini qo'yadi. Insonning barcha harakatlarini aniqlab, ular erkin, noerkin va aralashgan bo'ladi, deydi. Arastu erkin harakatning kelib chiqish tarixini o'rganadi. Harakat prinsipi insonning o'zidir. Shunga ko'ra insonning xatti-harakatlarini maqtash yoki qoralash mumkin.⁵

Arastuning axloqiy ta'limotlariga yakun yasab, shuni aytish mumkinki, unda Demokrit va Aflotungacha bo'lgan qadimgi axloqiy fikrlar umumlashgan. Yunon mutafakkiri o'z axloqiy nazaryasini ishlab chiqar ekan, hayotga realistik nuqtai nazardan qarashlarning kengligi ma'lum darajada Aflotuning diniy- mistik xarakteridagi axloqiy talimotlarni, sofistlarning axloqiy realizmni yengishga muvaffaq bo'ladi.

Falsafiy-axloqiy qarashlar borasida gap ketganda, musulmon Sharqida ikki yo'nalish alohida o'rin tutadi. Bular mashshoyyunlik va tasavvuf axloqshunosligi. O'rta asr musulmon Sharqida mashshoyyunlik yoki, boshqacha qilib aytganda, arastuchilik oqimining vakillari ichida Abu Ali ibn Miskavayhning axloqshunoslik haqidagi g'oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mutafakkirning "Tahzib ul-axloq va Tathir ul-a'roq" ("Axloq takomili va Ildizlar pokligi") asari uning ilmu axloq va hikmatga doir asarlari ichida asosiy o'rin egallaydi. Islom falsafasining ko'zga ko'ringan tarixchilaridan biri Majid Faxrining ta'kidlashicha, Ibn Miskavayhning etikaga qo'shgan hissi uning sistematik etikaga oid arab tilida yozilgan ushbu risolasidir. Bu asar yunon falsafiy-axloqiy an'alariga bog'liqdir. Asarda muruvvatlilik, baxt, adolat, muhabbat va do'stlik muammolari ko'rib chiqiladi. Masalan, adolat haqida Miskavayh shunday yozadi:

Adolat maqsad va imkoniyatning o'rtasidagi narsadir, yaxshiliklar ichida eng afzali hamjihatlikka eng yaqinidir".⁶ U adolatni haqiqiy, shartli, erkin harakatga asoslangan va ilohiy adolatga bo'ladi. Shu bilan birgalikda adolat konsepsiyasi, uning fizik, ijtimoiy hamda falsafiy munosabatida ko'rib chiqiladi. Mazkur risolaning asosiy manbalari Arastuning "Kategoriyalar", "Nikomax etikasi" kitoblari bo'lgan.

Miskavayhning axloq asoslari to'g'risida aytgan bu fikrlari axloqiy-falsafiy tahlildir demak, qo'lga kiradigan natijani ham falsafiy natija deyish mumkin. Va shu yerning o'zida u o'z yo'lini axloq masalasida jon kuydiruvchi tasavvuf va irfon ahli hamda Qur'on va sunnatga amal qiladigan, ammo shariatni zohiriy anglaydigan kishilar yo'lidan ajratib ko'rsatadi. Miskavayhning axloqi bu dunyoviy axloq, bunda u Aflotun bilan Arastu fikrlaridan keng foydalanadi. Ammo unga Arastu eng ko'p ta'sir o'tkazgan. Aytish mumkinki, kitobning butun mazmuni bo'lmasa ham, har holda ko'pgina axloqiy g'oyalarni Arastudan o'zlashtirgan.

⁵Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti", 2010. – 37–38-betlar.

⁶Majid Fakhry. History of Islamic Philosophy, N.Y. 1970 y.

Miskavayhning ideal baxt-saodat deb oqilona baxt –saodat deb hisoblaydi. Harakat esa, garchi u ham muhim va asosiy narsa bo'lsada, ammo u shunchaki bir vosita bo'lib, agar odamni oxirgi maqsadiga olib kelmasa, u nomunosibdir. Komillikka intiluvchi inson barcha ilmlarning yakuni va oxiri bosqich bo'lgan parvardigorni bilish darajasiga yetish uchun zina va bosqichlar bo'lib, sabr toqat bilan mukammallashtirish lozim. Inson harakat quvvatiga bog'liq bo'lgan komillashuvning ikkinchi bosqichi - bu axloqiy takomillashuv bo'lib, insoniy "faoliyat imkoniyati" bilan bog'liq harakatlarda kuchni taqsimlashdan boshlanadi. Inson o'z-o'zini takomillashtirish yo'lida hamma maxluqot va uning xossalari haqida bilimga ega bo'lgan taqdirdagina (narsalar, ularning mohiyati, belgilovchi chegaralari haqidagi bilimni egallash), u "olami sag'ir"- kichik olam deb atalishiga munosibdir. Shunday qilib, agar inson komillikning ana shu darajasiga (ilmiy darajasiga) yetib borsa, keyin o'z quvvatlarini takomillashtirish harakatida qo'llaydi va o'zining ichki quvvat hamda qobiliyatini bor bilimiga muvofiqlashtirib, o'zi bir olamga aylanadi. Bunday vaqtda qandaydir holatda, u olam(undagi jami narsalar bilan birga) bilan birlashib, yagona yaxlitlikni tashkil etadi. Boshqa tarafdin inson o'z ruhini ezgu harakatlar bilan bezagandan keyin, u xudoning xalifasi bo'lib qoladi.⁷ Shuningdek, haqiqiy baxtiyor odam ruhi ilm tufayli butun olam bilan birlashib ketgan odamdur. Uning sifati va axloqi shunday yuksak maqomga egaki, bu unga tangrining o'rinbosari (xalifasi) bo'lishiga imkon beradi.. Ya'ni Miskavayhga ko'ra, baxt-saodat bu-xushaxloqlikning yagona maqsadi bo'lgan aqliy tushuncha deb hisoblaydi.

"Saodatga erishish shartlari" deb nomlangan boshqa bobda Miskavayh bu haqda ancha batafsil gapirib o'tadi. Bu yerda u ochiq-ravshan dalillarga tayanib, o'zining falsafadagi maqsadi, saodatga erishish sharti bo'lgan bilim haqida so'zlaydi. Bu xuddi o'sha biz Arastuda ko'rganimiz fikridir: "Mukammal baxt-saodatni izlagan inson (asta-sekin) intiladigan bu bosqichga falsafaning barcha sohalarini to'g'ri bilmasdan turib erishishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu haqda "Tartib us-saodat" ("Baxtga erishish usullari") nomli kitobda ham batafsil to'xtab o'tgan. Kimki bu yo'ldan yurmasdan turib saodatga erishmoqni niyat qilgan bo'lsa, adashadi va haqiqatdan xiyla uzoqlashadi".⁸ Miskavayh taklif etgan yo'l Arastu bosib o'tgan yo'ldir. Ya'ni u bu yunon faylasufining barcha ilm sohasidagi fikrlarini o'rganishini tavsiya bayon etadi: "Arastu barcha zaruriy mavzular bo'yicha (saodatga erishishini uchun) kitoblar ta'lif etgan, uning kitoblari hamma narsani qamrab oladi. Agar uni aql bilan o'rganilsa, shuni bilib olish mumkinki, hech narsa uning diqqatidan chetda

⁷ Sulaymonova Sh. N. IBN Miskavayh axloqiy qarashlarida inson kamoloti masalasining qo'yilishi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – Vol. 1, №8. – 919-925-bet.

⁸ Mashkuya Roziy. Tahzib ul-axloq va tatxir ul-a'roq. Bidar nashr, Qum, hijr. 1371 y.-B.94

qolmagan”⁹ Faylasuf “Birinci muallim” ning “Axloq bo’yicha kitob”ni, insonga ezgu va sharaflı shaxsiy sıfatlar va pok axloq fazilatini o’zlashtirishini ko’rsatuvchi foydali va buyuk asar deb ataydi.

Faylasuf Arastu zamondoshlari va uning asarlaridan dars beruvchi mudarrislardan misollar keltirib, o’z shogirdlariga faylasuf asarlarini ”Etika” (“Axloq”) kitobidan boshlab o’rganish va bilimni tavsiya etadi, chunki bunda, avvalo o’rganuvchilarning o’zi bu bilan axloqan boyiydi. Zero, axloqiy fazilat haqiqatni qabul qilish shartidir deb hisoblaydi.

NATIJALAR

Ikki buyuk G’arb va Sharq mutafakkirining axloq to’g’risidagi konsepsiyalarini o’xshash va farqli tomonlarga ajratishimiz mumkin. Avvalo, har ikki mutafakkirning axloqiy ta’limotida baxt-saodat (saodat) masalasi markaziy o’rin egallaydi. Aristotel inson hayotining eng oliy maqsadi baxt-saodatga erishish ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, baxt-saodat fazilatli hayot kechirish orqali amalga oshadi. Fazilat esa inson xulqining me’yoriy muvozanatini ifodalaydi va “oltin o’rtalik” tamoyiliga asoslanadi. Ya’ni har qanday fazilat ikki haddan oshish yoki kamchilik orasidagi o’rtacha holatdir.

Ibn Miskawayh ham inson hayotining asosiy maqsadini saodatga erishish bilan bog’laydi. U axloqiy kamolot insonning ruhiy va aqliy takomillashuvi orqali yuzaga kelishi ta’kidlaydi. Mutafakkirning fikricha, haqiqiy baxt insonning ilmga erishishi, ruhiy poklanishi va axloqiy fazilatlarini o’zida mujassam etishi orqali amalga oshadi.

Ikki faylasuf qarashlarining o’xshash jihatlaridan biri shundaki, ular fazilatni axloqiy kamolotning asosiy mezonini deb biladilar. Aristotel fazilatlarini ikki turga ajratadi: aqliy fazilatlar va axloqiy fazilatlar. Aqliy fazilatlar bilim va tafakkur orqali rivojlansa, axloqiy fazilatlar odat va tarbiya natijasida shakllanadi. Ibn Miskawayh ham inson fazilatlarini aqliy va axloqiy jihatlar bilan bog’laydi hamda komil inson shakllanishida bilim va tarbiyaning muhim o’rin tutishini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, ikki mutafakkir qarashlarida muhim farqlar ham mavjud. Aristotel axloqiy ta’limotini asosan dunyoviy va ijtimoiy hayotga asoslab tushuntiradi. Ibn Miskawayh esa axloqiy kamolot masalasini islomiy dunyoqarash bilan uyg’un holda talqin qiladi. U insonning komillikka erishishini nafaqat aqliy rivojlanish, balki ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatni anglash bilan ham bog’laydi. Komparativ tahlil shuni ko’rsatadiki, Ibn Miskawayh o’z axloqiy qarashlarini ishlab chiqishda Aristotel falsafiy merosidan keng foydalanadi. Biroq u yunon falsafasini to’g’ridan-to’g’ri takrorlamasdan, uni islomiy axloqiy qadriyatlar bilan to’ldiradi va Sharq tafakkuri an’analari bilan uyg’unlashtiradi.

⁹ O’sha joyda. –B.447.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Arastu va Ibn Miskavayh axloqiy ta'limotlari insonning fazilatli hayot kechirishi va baxt-saodatga erishishi g'oyasi asosida bir-biriga yaqinlashadi. Biroq Ibn Miskavayh ushbu g'oyalarni islom falsafasi va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda yangi bosqichga olib chiqqan. Shu sababli uning axloqiy qarashlari Sharq falsafiy tafakkurining muhim namunasini tashkil etadi. Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda bu kabi axloqiy ta'limotlarni inson, jamiyat va davlatlarga munosabatlarda aks ettirish hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Aristotle. Nicomachean Ethics. Oxford University Press, 2009.
2. Abu Ali Ibn Miskawayh. Tahdhib al-Akhlaq wa Tathir al-A'raq (Axloq takomili va ildizlar pokligi). – Tehron, 1966.
3. Majid Fakhry. A History of Islamic Philosophy. – New York: Columbia University Press, 2004.
4. Sulaymonova, S. N. (2021). IBN MISKAVAYH AXLOQIY QARASHLARIDA INSON KAMOLATI MASALASINING QO'YILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 919-925.
5. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
6. Sulaymonova, S. N. (2026). IBN MISKAVAYHNING MASHSHOIYYUNLIK YO'NALISHIDAGI O'RNI. *International scientific journal of Biruni*, 5(1), 56-63.
7. Sulaymonova, S. N. (2024). “TAHZIBUL AXLOQ” ASARIDAGI AXLOQIYLIK MEZONLARINING HOZIRGI DAVRDAGI KOMIL INSON G'OYALARI BILAN HAMOHANGLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 668-672.
8. Sulaymonova, S. N. (2024). IBN MISKAVAYHNING SHARQ FALSAFIY TAFAKKURIDAGI O'RNI. *XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования)*, 1(1), 68-75.
9. Sulaymonova, S. N. (2022). IBN MISKAVAYHNING “TARTIBUS-SAODAT” VA “MANAZILULULUM” ASARI HAQIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 684-688.
10. Nodirovna, S. S. (2024). The Views of Muslim Philosophers on the Theory of Evolution. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 30, 24-29.